



GERMANIYA TARIXIY MAKTAB IQTISODIY TA'LIMOTINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Mualliflar: Ishankulova Farangis Azamovna ¹, Abdiyeva Oysha Ro'zimurod qizi ²

Affiliyatsiya: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti v.b. dotsenti, PhD ¹, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi ²

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17570195>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Germaniya tarixiy maktabining shakllanish bosqichlari, uning asosiy g'oyalari va vakillarining iqtisodiy tafakkur rivojiga qo'shgan hissasi atroflicha tahlil qilinadi. XIX asrda vujudga kelgan mazkur maktab klassik iqtisodiy ta'limotdan farqli ravishda iqtisodiy hodisalarni faqat nazariy yoki matematik yo'nalishda emas, balki tarixiy, ijtimoiy, madaniy va milliy omillar bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni ilgari surdi.

Kalit so'zlar: Germaniya tarixiy maktabi, iqtisodiy ta'limot, tarixiy yondashuv, milliy iqtisodiyot, ijtimoiy adolat, iqtisodiy siyosat, davlat roli, iqtisodiy taraqqiyot, madaniy omillar, tarixiy tajriba.

KIRISH

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi insoniyat tafakkurining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki iqtisodiy g'oyalar jamiyat taraqqiyotining asosiy omillarini anglash, ularni boshqarish va muvozanatli rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. XIX asrning o'rtalariga kelib Germaniyada shakllangan tarixiy maktab iqtisodiyot faniga yangicha qarashni olib kirdi. Bu maktab klassik iqtisodiyotning umumiy va abadiy qonunlarga asoslangan nazariyalariga qarshi chiqib, iqtisodiy jarayonlarni har bir mamlakatning tarixiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari bilan bog'liq holda o'rganishni ilgari surdi. Germaniya tarixiy maktabi vakillari — Vilgelm Rocher, Bruno Hildebrand, Karl Knies, Gustav Schmoller, Adolf Vagner singari olimlar iqtisodiy hayotda davlatning faol roli, ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarini asoslab berdilar. Ularning fikricha, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda faqat nazariy modelga emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy tuzilishiga tayangan holda yondashish zarur.

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot davrida ushbu g'oyalar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Aksincha, ularni amaliyotga tatbiq etish barqaror iqtisodiy siyosat yuritish, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, hamda milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bois Germaniya tarixiy maktabining nazariy merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy iqtisodiy siyosatda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Germaniya tarixiy maktabi XIX asr o'rtalarida iqtisodiy tafakkurda yangi bosqichni boshlab berdi. Bu davrda Yevropada sanoat inqilobi kuchayib, kapitalistik munosabatlar keng yoyilgan edi. Ingliz klassik iqtisodchilari ilgari surgan "umumiy va abadiy iqtisodiy qonunlar" g'oyasi ko'pchilik olimlar tomonidan tanqid ostiga olinib, iqtisodiy jarayonlarni milliy, tarixiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liq holda o'rganish zarur degan yondashuv paydo bo'ldi. Ana shunday qarashlar Germaniyada tarixiy maktab shakllanishiga asos bo'ldi. Tarixiy maktab vakillari iqtisodiyotni o'rganishda nazariy model va matematik hisob-kitoblarga emas, balki hayotiy tajriba, tarixiy sharoit va xalqning madaniy qadriyatlariga tayangan. Ularning fikricha, iqtisodiy qonunlar hamma mamlakatlar uchun bir xil emas, balki har bir xalqning tarixiy taraqqiyot bosqichi, ijtimoiy tuzilishi va milliy an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bu yondashuv iqtisodiyotni o'rganishda tarixiy faktlarga tayangan holda umumiy xulosalar chiqarishni talab qiladi.

Vilgelm Rocher, Bruno Hildebrand va Karl Knies bu maktabning dastlabki vakillari bo'lib, ular iqtisodiy rivojlanishning tarixiy bosqichma-bosqich kechishini ilmiy asoslab berdilar. Keyinchalik Gustav Schmoller, Adolf Vagner, Lujo Brentano singari olimlar bu g'oyalarni yanada rivojlantirib, iqtisodiyotda davlatning faol rolini asoslab berdilar. Ular jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, ishchi sinf manfaatlarini himoya qilish, soliqlarni adolatli taqsimlash kabi masalalarga katta e'tibor qaratdilar. Schmoller davlatning iqtisodiy siyosatdagi vazifasi faqat tartibga solish emas, balki ijtimoiy tenglikni ta'minlashdan iborat ekanini ta'kidladi. Tarixiy maktabning asosiy yondashuvi induktiv metodga tayanadi. Ya'ni iqtisodiy hodisalarni o'rganishda umumiy nazariyalardan emas, balki aniq faktlar va tarixiy tajribalardan kelib chiqiladi. Ular iqtisodiy rivojlanishni uzluksiz jarayon deb hisoblab, uni tabiiy evolyutsiya sifatida ko'radilar. Shu bois, iqtisodiyotda keskin o'zgarishlar emas, balki bosqichma-bosqich rivojlanish tarafdori bo'lganlar.

Germaniya tarixiy maktabining g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Davlatning iqtisodiyotdagi faol roli, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish, soliq siyosatini adolat tamoyiliga asoslash kabi masalalar bu maktab nazariyalarining amaliy ko'rinishidir. Adolf Vagner ilgari surgan "davlat xarajatlarining o'sish qonuni" hozirgi kunda davlat byudjeti siyosatini tahlil etishda asosiy nazariyalardan biri sifatida ishlatilmoqda. Zamonaviy Germaniya, Skandinaviya va boshqa rivojlangan davlatlarning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti aynan tarixiy maktab g'oyalari tayanadi. Ularning iqtisodiy siyosatida inson manfaatlarini ustuvor qo'yish, ijtimoiy barqarorlikni saqlash va davlatning muvofiqlashtiruvchi rolini kuchaytirish ustuvor o'rinda turadi. O'zbekiston iqtisodiyotida ham tarixiy maktab tamoyillarining aksini ko'rish mumkin. Mustaqillik yillarida mamlakat bosqichma-bosqich rivojlanish yo'lini tanladi, islohotlarda xalqning mentaliteti, tarixiy an'analari va ijtimoiy qadriyatlari inobatga olindi. Davlatning bosh islohotchi sifatidagi roli, ijtimoiy himoya tizimining rivojlantirilishi ham Germaniya tarixiy maktabining asosiy g'oyalari yaqin.

XULOSA

Germaniya tarixiy maktabi iqtisodiy tafakkur taraqqiyotida chuqur iz qoldirgan ilmiy yo'nalishlardan biridir. Bu maktab iqtisodiyotni faqat nazariy modellar asosida emas, balki xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy tuzilishi, madaniy qadriyatlari va siyosiy sharoitlari bilan bog'liq holda o'rganish zarurligini asoslab berdi. Ularning

g'oyalari iqtisodiy jarayonlarga tarixiy yondashuvni olib kirdi, davlatning iqtisodiyotdagi faol rolini va ijtimoiy adolatni ta'minlash zarurligini ilgari surdi. Bugungi kunda ham Germaniya tarixiy maktabi ta'limoti o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Global iqtisodiy muammolarni hal etishda, barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda, hamda milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilishda bu ta'limotning tamoyillari amaliy ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston tajribasida ham bosqichma-bosqich islohotlar, davlatning bosh islohotchi roli va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida tarixiy maktab g'oyalarining aksini ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шмоллер Г. Историческая школа в политической экономии. — Берлин: Verlag von Duncker & Humblot, 1900.
2. Вагнер А. Основы политической экономии. — Лейпциг, 1892.
3. Hildebrand B. Die Nationalökonomie der Gegenwart und Zukunft. — Frankfurt am Main, 1848.
4. Rocher W. System der Volkswirtschaft. — Leipzig, 1854
5. Knies K. Die politische Ökonomie vom Standpunkte der geschichtlichen Methode. — Braunschweig, 1853

